

**LAND RESOURCES OF KASHKADARYA REGION****A. S. Samadov**

Student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, Uzbekistan**R. A. Ibragimova**

PhD., Associate Professor

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Tashkent, UzbekistanE-mail: anor-0502@mail.ru**ABOUT ARTICLE****Key words:** land fund, land resources, agriculture, salinization, pastures, degradation, desert zone, water erosion, wind erosion.**Received:** 05.03.23**Accepted:** 07.03.23**Published:** 09.03.23**Abstract:** This article is devoted to the land resources of the Kashkadarya region and the problems that threaten them. Such problems as the composition of the land fund of the Kashkadarya region, salinization, which threatens land resources, pasture degradation, are considered.**QASHQADARYO VILOYATI YER RESURSLARI****A. S. Samadov**

Talaba

Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston**R. A. Ibragimova**

Dotsent, g.f.n.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekistonE-mail: anor-0502@mail.ru**MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** yer fondi, yer resurslari, qishloq xo'jaligi, sho'rlanish, yaylov, degradatsiya, cho'l zonasi, suv eroziyasi, shamol eroziyasi.**Annotatsiya:** Mazkur maqola Qashqadaryo viloyati yer resurslari va ularga xavf soladigan muammolarga bag'ishlangan. Qashqadaryo viloyati yer fondi tarkibi, yer resurslariga xavf solayotgan sho'rlanish, yaylovlar degradatsiyasi kabi muammolar ko'rib chiqilgan.

ЗЕМЕЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ**А. С. Самадов***Студент**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**Ташкент, Узбекистан***Р. А. Ибрагимова***Доцент, к.г.н.**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**Ташкент, Узбекистан**E-mail: anor-0502@mail.ru*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: земельный фонд, земельные ресурсы, сельское хозяйство, засоление, пастбища, деградация, пустынная зона, водная эрозия, ветровая эрозия.

Аннотация: Данная статья посвящена земельным ресурсам Кашкадарьинской области и проблемам, которые им угрожают. Рассмотрены такие проблемы, как состав земельного фонда Кашкадарьинской области, засоление, угрожающее земельным ресурсам, деградация пастбищ.

KIRISH

Inson va tabiat orasidagi o'zaro munosabatlar yildan-yilga yanada murakkablashib, insoniyatning tabiatga va uning resurslariga bo'lgan ta'siri kuchayib bormoqda. Natijada o'ziga xos mahalliy, hududiy va sayyoraviy muammolar vujudga kela boshladi. Ana shunday muammolar sirasiga ozon qatlamining yemirilishi, iqlim o'zgarishi, cho'llanish, yer resurslari degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi, tupqoqlarning sho'rlanishi, atmosfera havosining ifloslanishi, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini saqlash va qayta tiklash, chiqindilarni boshqarish va boshqa muammolar kiradi.

Milliy iqtisodiyot ehtiyojlari uchun foydalanish mumkin bo'lgan yer resurslari, ayniqsa qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli bo'lgan yerlar cheklanganligi bilan ajralib turadi. Yer resurslaridan oqilona foydalanmaslik va muhofaza qilish masalalariga e'tibor bermaslik oqibatida degradatsiyaga uchramoqda.

ASOSIY QISM

O'zbekiston Respublikasining ma'muriy birliklari ichida Qashqadaryo viloyati eng katta yer resurslariga ega viloyatlaridan biri hisoblanadi. Viloyat qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan katta yer fondiga ega. O'zbekiston Respublikasi yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga asosan 8 ta toifaga bo'linadi.

Qashqadaryo viloyatining umumiy yer maydoni 2022 yil 1 yanvar holatiga jami yerlar 2856,9 ming gektarni tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 2321,4 ming gektarni

tashkil qiladi. Shundan, 670,9 ming gektari ekin yerlar, 38,2 ming gektari ko'p yillik daraxtlar, 20,6 ming gektari bo'z yerlar, 1214 ming gektar yerlar yaylovlar va pichanzorlar, 72,9 ming gektar maydon tomorqa hamda bog'dorchilik-uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalari yerlari, 18,6 ming gektari meliorativ qurilish holatidagi yerlar, 11,2 ming gektari o'rmonzorlar va 275 ming gektari boshqa yerlardan iborat [7].

2002-2022 yillarda viloyat yer maydoni sezilarli darajada o'zgarmagan holda, uning tarkibida ancha o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, qishloq xo'jaligi yer maydoni 6 % ga qisqargan. Buning hisobiga aholi punktlari yerlari 1,1 % ga, o'rmon xo'jaligi yerlari 4,72 % ga, suv fondi yerlari 0,1 % ga ko'paygan. Shuningdek, 2002 yilda tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar viloyatda ajratilmagan bo'lsa, bunday yerlar 2022 yilga kelib 0,09 % ni tashkil qilgan [2, 9-b.] (1-jadval).

1-jadval

Qashqadaryo viloyati Yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi [2,7]

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydoni			
		2002 yil		2022 yil	
		Jami (ming ga. hisobida)	Foiz hisobida	Jami (ming ga. hisobida)	Foiz hisobida
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	2495,0	87,34	2321,4	81,3
2	Aholi punktlarining yerlari	11,6	0,41	12,5	0,44
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	35,5	1,24	67,4	2,34
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	-		-	-
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	-		2,6	0,09
6	O'rmon fondi yerlari	276,6	9,68	412,1	14,4
7	Suv fondi yerlari	34,3	1,2	37,1	1,3
8	Zahira yerlar	3,8	0,13	3,8	0,13
	Jami yerlar:	2856,8	100	2856,9	100

Sug'orma dehqonchilik sharoitlarida tabiatdan oqilona foydalanishining xususiyatlaridan biri yer-suv resurslaridan uzviy bog'liq ravishda to'g'ri foydalanish sug'riladigan yerlarda ekologik-iqtisodiy nuqtai nazardan noma'qbul jarayonlarning kuchayishiga va natijada yerlar mahsuldorligining kamayishiga, tabiat komponentlari orasidagi muvozanatning buzilishiga olib

keladi. Qashqadaryo viloyatida yer resurslarining degradatsiyasiga xavf solayotgan bir qancha muammolar yuzaga keldi. Jumladan, tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi, yaylovlar degradatsiyasi, tabiiy boyliklarni qazib olish natijasida ifloslanishi, sug'oraladigan yerlarda suvdan nooqilona foydalanish, sizot suvlarning sathining ko'tarilishi va tuproqlarning sho'rlanishi, eroziya jarayonining tezlashishi kabilar.

Sobiq ittifoq davrida kimyoviy o'g'itlarning normadan ortiqcha solinishi, zararkunanda hashorotlarga qarshi kimyoviy moddalarning ko'plab ishlatilishi tuproq tarkibidagi mikroorganizmlarning kamayishiga olib keldi. O'tkazilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, hozirgi agrotexnika sharoitlarda mineral o'g'itlarning atigi 35-40% ini o'simliklar o'zlashtiradi. Qolgan 60-65% tuproqda to'planadi, yer osti suvlari orqali tarqalib atrof muhitni ifloslantiradi. Oqibatda tuproqning turli eroziyalarga chalinishi sho'rlanish va botqoqlanishi tezlashdi. Sug'oraladigan ekin maydonlarining kengayishi, chorvachilik va qishloq xo'jaligi rivojlanishi yer resurslarining meliorativ holatiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Tabiiy yaylovlar O'zbekiston hududining asosiy qismini (46,8 %) tashkil etib, ularning jami maydoni 20997,6 ming ga. Ular umumiy maydonining 89,2 foizi (18748,3 ming ga) suv bilan ta'minlangan. Jami yaylovlarning 2/5 qismidan ortiqrog'i Navoiy viloyatiga, 1/4 qismiga yaqini Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarni Buxoro (12,1 %) va Qashqadaryo (6,7%) viloyatlari band etgan [3, 569-b.].

Qashqadaryo viloyati jami maydoniga nisbatan yaylovlar ulushi 49,3 % ni tashkil qiladi. Qashqadaryoning katta maydonlari lalmi yerlardan iborat bo'lib, o'simlik qoplami efemer-efemeroidli, qo'ziquloqli-efemeroidzor va shuvoqli-efemeroidzor jamoalari mavjud bo'lib, ular intensiv mol boqilishi natijasida degradatsiyaga uchragan. Bundan tashqari, keyingi paytlarda Hisor tog' tizmasi tog'oldi hududlarida neft va gaz zahiralarining faol darajada rivojlanayotganligi ham sabab bo'lmoqda [6, 12-b.]. Chorva mollarininng ko'p bo'lishi yaylovlardagi o'simlik miqdorini kamayishiga olib keladi. Bunday holat Chiroqchi va Muborak tumanlarida kuchli yuz bermoqda.

Qashqadaryo viloyatining tog'li va tog'oldi qismlarida ancha katta yaylovlarda suv eroziyasi, cho'l zonasi hududlarida shamol eroziyasi tarqalgan. Sug'orma dehqonchilik qilinadigan hududlarda irrigatsion eroziya vujudga kelmoqda. Irrigatsion eroziya bo'z tuproqlarda har yili har bir gektar sug'oraladigan maydonda 100-150 tonna miqdorda tuproqning yuvilishiga olib keladi, ya'ni har bir gektar maydondan 0,5-0,8 tonna chirindi, 110-120 kg fosfor 110-115 kg azot minerallari yuviladi. Hosildorlik eroziya sust bo'lgan yaylovlarda 15-20% ga, kuchli ro'y beradigan yerlarda 50-60% kamayish holatlari aniqlangan. Agar eroziya jarayonlarga chek qo'yilmasa, oldi olinmasa yaylovlar foydalanish uchun batomom yaroqsiz holga kelib qoladi [1, 90-b].

Qarshi cho'li hududiga tutash bo'lgan Muborak, Kasbi, Nishon tumanlarida mahalliy aholining cho'l yaylovlari hududidagi o'simlik (saksovul, yulg'un, ilq, shuvoq va boshqa o'simliklar)larni me'yordan ortiqcha foydalanishi oqibatida cho'l yaylovlaridagi biomassaga jiddiy zarar berilmoqda. Yaylovlarning hosildorligi kamayib cho'llanish jarayonining kuchayishiga olib kelmoqda.

Neft va gaz konlari qazib olinadigan yaqin joylarda va endi ochilayotgan hududlarda neftdan ifloslanish sodir bo'lmoqda. Ayniqsa G'uzor va Muborak tumanlarida kuchli ifloslangan.

Gidromelioratsiya va agrotexnika qoidalariga amalga oshirilmayotganligi sababli ancha maydonlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir etadigan salbiy jarayonlar (Qayta sho'rlanish, zax bosish, irrigatsiya eroziyasi, tuproqlardagi chirindi miqdorini me'yordan kamayishi, suffoziya-karst va boshqalar) ta'sir etmoqda. Ayniqsa, sizot suvlari sathining ko'tarilishi tufayli qayta sho'rlangan yerlarning maydoni yildan yilga ortib bormoqda.

Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi bilan birga sug'oriladigan yerlarda sizot suvlarning ko'tarilishi ro'y bermoqda. Ayniqsa, sizot suvlari sathining ko'tarilishi tufayli qayta sho'rlangan yerlarning maydoni yildan-yilga ortib bormoqda viloyatda esa sug'oriladigan yerlar 515,5 ming gektarga teng, shundan 54,5 foizi (281,0 ming ga) sho'rlanmagan. Sho'rlangan maydon 234,5 ming gektar, uning 75,5 foizi kuchsiz, 19,3 foizi o'rtacha, 5,2 foizi kuchli sho'rlangan yerlardir. Viloyatning Koson, Mirishkor, Nishon, Muborak, Kasbi va Qarshi tumanlarida sho'rlangan yerlar maydoni viloyat jami sho'rlangan yerlarining 80,0 foizini tashkil qiladi [4, 5, 53-b.].

2-jadval

**Qashqadaryo viloyatidagi ba'zi tumanlarning sug'oriladigan tuproqlarning
sho'rlanish holati va tavsifi [4]**

№	Tumanlar nomi	Sug'oriladigan yer maydoni, ga	Sho'rlangan yerlar	
			ga	%
1	Koson	63727,0	39397,4	61,82
2	Qamashi	30052,7	7916	26,34
3	Qarshi	43360,0	21650,4	49,93
4	Kasbi	46319,0	34555,4	74,60
5	Muborak	32183,0	27350,7	84,98
6	Mirishkor	56523,0	40197	71,12
7	Nishon	53713,0	34690,3	64,58
	Jami	325877,7	205757,2	61,91

Ko'rinish turibdiki, Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarda sho'rlangan maydonlarning ulushi katta. Bunga sug'oriladigan yerlar salmog'ining kattaligi, relyefning tekisligi, ya'ni qiyalikning kamligi, ortiqcha suvlarning chiqib ketish tezligining juda pastligi, sizot suvlarining yaqinligi, tuproqning turli omillar ta'sirida sho'rlanganligi hamda sizot suvlarining

sho'rlanganlik darajasi asosiy sabab bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yer resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etishda degradatsiya jarayonlariga qarshi o'tkaziladigan tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatidagi mavjud qishloq xo'jaligi yerlari va yaylovlar degradatsiyasiga oid muomolarni oldini olish va bartaraf qilish maqsadida bir qancha vazifalarni amalga oshirish lozim.

XULOSA

Yer resurslarining cheklanganligi, tuproqlarning sho'rlanishi va unumdorligining pasayib borishi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan hamda haydaladigan yerlarning kamayib borishi ulardan oqilona va samarali foydalanishni hamda agromeliorativ tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan yer fondi tarkibiga, yer resurslarining yerdan foydalanuvchilariga, uning to'g'ri va oqilona taqsimlanishiga bog'liq. Shu jihatdan qaraganda, Qashqadaryo viloyati yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, unga xavf solayotgan muammolarni tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев С.И., Полвонов Ш.М., Ф А.Т. Хайитов. Табиатидан фойдаланиш ва табиатни муҳофаза қилиш, Қашқадарё вилояти географияси // Ўқитувчилар учун ўқув қўлланма.- Қарши, 1994.- Б 88-91
2. Аминов Ф.Б. Ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг ҳудудий хусусиятлари (Қашқадарё вилояти мисолида): Диссертация автореферати, иқтисод фанлари номзоди. – Тошкент, 204. 27 б.
3. Ибрагимова Р.А., Ибраимова А.А. Пастбища Узбекистана и некоторые вопросы их использования // Экономика и социум. Выпуск №6 (97) 2022. С.– 567-570.
4. Ўзбекистон суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва уларни яхшилаш бўйича илмий-амалий тавсиялар / Ўзбекистон Республикаси ер ресурслари, геодезия, картография ва давлат кадастри давлат қўмитаси. М.И.Рузметов, Р.Қ.Қўзиев, О.А.Жабборов, С.А.Абдуллаев, З.А.Жаббаров, Ж.Б.Мусаев, А.С.Пулатов, А.Ж.Эргашев, З.Х.Саломов, Ш.В.Агзамова, М.А.Мирзабоева, У.Х.Нурматов, М.Р.Кунгиров, Ж.Дехқонов. Тошкент, “Университет”, 2018. - 311 бет.
5. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон суғориладиган ерларининг мелиоратив ҳолати ва геоэкологик вазияти // Ўзбекистон География жамияти ахбороти, 50-жилд. Тошкент, 2017.-Б

6. Хўжаназаров Ў.Э. Қашқадарё ҳавзасининг тоғолди яйловлари мониторинги ва экологик оптималлаштириш:.. Диссертация автореферати, биология фанлари доктори (DSc). – Нукус, 2022. 64 б.

7. https://kadastr.uz/medias/article/398/_1628429159.doc